

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKNING “OMADLI TO‘LOV” REKLAMA AKSIYASINI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDAGI OMMAVIY OFERTA

Mazkur Ommaviy oferta O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “Reklama to‘g‘risida”gi Qonun hamda boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keyingi o‘rinlarda — **Bank** yoki **Tashkilotchi**) tomonidan tashkil etilayotgan “**Omadli to‘lov**” reklama aksiyasini (keyingi o‘rinlarda — **Aksiya**) o‘tkazish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Mazkur Ommaviy oferta Aksiyaning tashkil etish va o‘tkazish tartibini, unda ishtirok etish shartlarini, ishtirokchilarni aniqlash mezonlarini, sovrin jamg‘armasini shakllantirish va taqsimlash tartibini, g‘oliblarni aniqlash mexanizmini, sovrinlarni topshirish shartlarini, shuningdek Bank va Ishtirokchilarning huquq hamda majburiyatlarini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq reklama aksiyasi hisoblanadi hamda lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin turi sifatida talqin etilmaydi.
- 1.3. Aksiya ishtirok etish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. Ishtirokchilardan mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlardan tashqari qo‘shimcha majburiyatlarni bajarish talab etilmaydi.
- 1.4. Aksiya Xalq banki tomonidan emissiya qilingan UZCARD bank kartalaridan foydalanish faolligini oshirish, naqdsiz hisob-kitoblarni rag‘batlantirish hamda mijozlar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida tashkil etiladi.
- 1.5. Mazkur Aksiya Bank tomonidan emissiya qilingan quyidagi bank kartalari ishtirok etadi:
 - UZCARD DUO (5614);
 - UZCARD Moment (5614);
 - UZCARD-UPI Moment (6262);
 - UZCARD-MASTERCARD (5440).Mazkur Ommaviy oferta doirasida yuqorida ko‘rsatilgan bank kartalari umumiy nom bilan UZCARD kartalari deb yuritiladi.
- Virtual bank kartalari mazkur Aksiya ishtirok etmaydi.
- 1.6. 2026-yil 15-iyul sanasidan boshlab rasmiylashtirilgan hamda muvaffaqiyatli faollashtirilgan UZCARD kartalari mazkur Ommaviy ofertada belgilangan shartlarga rioya etilgan taqdirda Aksiya ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.
- Ishtirokchi karta muvaffaqiyatli faollashtirilgan paytdan boshlab Aksiya ishtirokchisi sifatida e‘tirof etiladi.
- 1.7. Aksiya tashkilotchisi:
 - O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki
 - Telefon: +998 71 210-20-02
 - Elektron pochta: info@xb.uz
 - Rasmiy veb-sayt: www.xb.uz
 - Yuridik manzil: 100096, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Qatortol ko‘chasi, 46-uy.
- 1.8. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida Xalq banki tizimi doirasida o‘tkaziladi.
- 1.9. Aksiya 2026-yil 15-iyul soat 00:00:00 dan 15-sentyabr soat 23:59:59 ga qadar amal qiladi.
- 1.10. G‘oliblarni aniqlash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:
 - 1-bosqich — 2026-yil 3-avgust;
 - 2-bosqich — 2026-yil 17-avgust;
 - 3-bosqich — 2026-yil 3-sentyabr;
 - 4-bosqich (final) — 2026-yil 16-sentyabr.

- 1.11. Pul mukofotlari g'oliblar yakuniy tasdiqlangandan, shaxs identifikatsiyasi amalga oshirilgandan hamda zarur hujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng 10 (o'n) bank kuni ichida to'lab beriladi.
- 1.12. Mazkur Aksiya doirasida beriladigan pul mukofotlari yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov yoxud moddiy yordam sifatida baholanmaydi.
- 1.13. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining mazkur Ommaviy oferta shartlari bilan to'liq tanishganligi, ularni tushunganligi hamda hech qanday e'tirozlarsiz qabul qilganligini anglatadi.

2. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

- 2.1 Mazkur Aksiyada O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi, 18 (o'n sakkiz) yoshga to'lgan, to'liq muomala layoqatiga ega bo'lgan hamda mazkur Ommaviy ofertada belgilangan barcha shartlarni bajargan jismoniy shaxslar ishtirok etish huquqiga ega.
- 2.2 Quyidagi shaxslar Aksiyada ishtirok eta olmaydi:
 - O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining barcha xodimlari;
 - Aksiyani tashkil etish, o'tkazish yoki natijalarini aniqlash jarayoniga bevosita jalb etilgan jismoniy va yuridik shaxslar;
 - mazkur Ommaviy oferta talablariga rioya qilmagan yoki Aksiya shartlarini bajarmagan shaxslar;
 - qonunchilik yoki mazkur Ommaviy oferta asosida ishtiroki cheklangan boshqa shaxslar.
- 2.3 Aksiyada ishtirok etish bepul hisoblanadi. Ishtirokchilardan Aksiyada qatnashish uchun hech qanday qo'shimcha to'lov undirilmaydi.
- 2.4 Bank kartasidan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan barcha xarajatlar, shu jumladan Bank tariflari, ekvayer banklar, to'lov tizimlari yoki boshqa tashkilotlar tomonidan amaldagi tariflarga muvofiq undiriladigan komissiyalar Ishtirokchining shaxsiy xarajatlari hisoblanadi hamda Aksiya doirasida qoplanmaydi.
- 2.5 Har bir Ishtirokchi mazkur Ommaviy oferta shartlariga rioya etishi hamda Bank tomonidan belgilangan talablarni to'liq bajarishi shart.

3. AKSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

- 3.1. Mazkur Aksiyada Xalq banki tomonidan emissiya qilingan UZCARD bank kartalari orqali 2026-yil 15-iyuldan 2026-yil 15-sentyabrga qadar amalga oshirilgan naqdsiz to'lov operatsiyalari ishtirok etadi.
- 3.2. Aksiya Ishtirokchisi maqomini olish uchun Ishtirokchi quyidagi shartlarni bir vaqtning o'zida bajarishi lozim:
 - 3.2.1. Aksiya muddati davomida yangi UZCARD bank kartasini rasmiylashtirishi va muvaffaqiyatli faollashtirish.
 - 3.2.2. Mazkur bank kartasi orqali Aksiya muddati davomida umumiy summasi kamida 100 000 (yuz ming) so'm miqdorida naqdsiz to'lov operatsiyalarini amalga oshirish.
 - 3.2.3. Hisob-kitoblarda faqat muvaffaqiyatli yakunlangan va bekor qilinmagan operatsiyalar inobatga olinadi.Operatsiyalar summasi Aksiya muddati davomida jamlanib (kumulativ tarzda) hisoblanadi.
- 3.3. Quyidagi operatsiyalar aksiya doirasida hisobga olinmaydi:
 - valyuta ayirboshlash operatsiyalari;
 - kartadan kartaga (P2P) pul o'tkazmalari;
 - bank kartasidan naqd pul yechish;
 - bank kartasini naqd pul bilan to'ldirish;

- kreditlar, bo‘lib-bo‘lib to‘lash xizmatlari va boshqa bank mahsulotlari bo‘yicha to‘lovlar;
 - bekor qilingan, qaytarilgan yoki muvaffaqiyatsiz yakunlangan operatsiyalar.
- 3.4. Quyidagi hollarda Ishtirokchi Aksiya qatnashish huquqini yo‘qotadi:
- mazkur Ommaviy oferta shartlarini bajarmagan bo‘lsa;
 - bank kartasi Aksiya boshlanishidan oldin yoki tugaganidan keyin faollashtirilgan bo‘lsa;
 - g‘olib aniqlanadigan sanada bank kartasi bloklangan, yopilgan yoki faol bo‘lmasa;
 - Ishtirokchi Aksiyaning avvalgi bosqichlaridan birida g‘olib deb topilgan bo‘lsa.
- 3.5. Har bir bosqich bo‘yicha g‘oliblarni aniqlashda faqat tegishli bosqich yakunlanadigan sanadan oldingi kun soat **23:59:59** ga qadar ushbu ommaviy oferta shartlarini to‘liq bajargan Ishtirokchilar ishtirok etadi.
- 3.6. Bank mazkur Ommaviy ofertaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunday o‘zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 3 (uch) ish kuni oldin Bankning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.
- 3.7. Agar Ishtirokchi tomonidan mazkur Ommaviy oferta talablari buzilganligi aniqlansa, Bank Ishtirokchini Aksiya dan chetlashtirish, g‘oliblik maqomini bekor qilish hamda zarur hollarda g‘oliblarni qayta aniqlash huquqiga ega.
- 3.8. Bank Ishtirokchi tomonidan mazkur Ommaviy oferta talablariga rioya etilmaganligi oqibatida yuzaga kelgan har qanday zarar, yo‘qotish yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

4. SOVRIN JAMG‘ARMASI

- 4.1. Aksiyaning umumiy sovrin jamg‘armasi **500 000 000 (besh yuz million) so‘m**ni tashkil etadi.
- 4.2. Aksiya doirasida jami 101 (bir yuz bir) nafar Ishtirokchi g‘olib deb topiladi hamda ularga quyidagi miqdorlarda pul mukofotlari beriladi:
- **3 000 000 (uch million) so‘m** — 60 nafar g‘olibga;
 - **5 000 000 (besh million) so‘m** — 26 nafar g‘olibga;
 - **10 000 000 (o‘n million) so‘m** — 14 nafar g‘olibga;
 - **50 000 000 (ellik million) so‘m** miqdoridagi bosh mukofot — 1 nafar g‘olibga.
- 4.3. Sovrinlar aksiyaning har bir bosqichi yakunlari bo‘yicha quyidagi tartibda taqsimlanadi:

Bosqich	3 mln so‘m	5 mln so‘m	10 mln so‘m	50 mln so‘m
1-bosqich	15 nafar	6 nafar	3 nafar	-
2-bosqich	15 nafar	6 nafar	3 nafar	-
3-bosqich	15 nafar	6 nafar	3 nafar	-
Final bosqich	15 nafar	8 nafar	5 nafar	1 nafar

- 4.4. Pul mukofotlari mazkur Ommaviy oferta talablariga muvofiq g‘olib deb topilgan Ishtirokchilarga ushbu hujjatda belgilangan muddat va tartibda topshiriladi.
- 4.5. Har bir Ishtirokchi Aksiya davomida faqat bir marta g‘olib deb topilishi mumkin. Avvalgi bosqichlardan birida g‘olib bo‘lgan Ishtirokchi keyingi bosqichlarda o‘tkaziladigan sovrinli tanlovlarda ishtirok etmaydi. Mazkur cheklov bosh mukofotni aniqlash bosqichiga ham tatbiq etiladi.

- 4.6. Bank quyidagi holatlar aniqlangan taqdirda Ishtirokchini Aksiya dan chetlashtirish hamda g‘oliblik maqomini bekor qilish huquqiga ega:
- Aksiya shartlarini sun'iy ravishda bajarishga urinish;

- bir nechta shaxslar nomidan noqonuniy ishtirok etish;
- firibgarlik yoki qalbakilashtirish alomatlari aniqlanishi;
- noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlar taqdim etilishi;
- Bankning avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari orqali shubhali operatsiyalar aniqlanishi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki mazkur Ommaviy oferta talablarining buzilishi.

4.7. Pul mukofotlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hisoblanadi hamda to'lanadi.

4.8. Bank zarurat tug'ilganda Aksiyaning asosiy shartlarini o'zgartirmagan holda:

- sovrin jamg'armasini kengaytirish;
 - qo'shimcha mukofotlar joriy etish;
 - sovrinlar sonini ko'paytirish
- huquqini o'zida saqlab qoladi.

Bunday o'zgartirishlar Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. G'OLIBNI ANIQLASH TARTIBI

- 5.1. G'oliblar Aksiyaning har bir bosqichi yakunlari bo'yicha tasodifiy tanlash algoritmi (Random) yordamida aniqlanadi.
- 5.2. G'oliblarni aniqlash jarayoni Bank tomonidan tashkil etilgan komissiya nazorati ostida ochiqlik, shaffoflik va xolislik tamoyillariga rioya etilgan holda o'tkaziladi.
- 5.3. Bank g'oliblarni aniqlash jarayonini rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida jonli e'fir orqali namoyish etish huquqiga ega.
- 5.4. Tasodifiy tanlash jarayonida faqat mazkur Ommaviy oferta talablarini to'liq bajargan Ishtirokchilar qatnashadi.
- 5.5. Tasodifiy tanlash uchun har bir Ishtirokchiga tegishli identifikatsiya ma'lumotlari Bank axborot tizimidan avtomatik shakllantiriladi hamda tasodifiy tanlash algoritmiga uzatiladi.
- 5.6. Tasodifiy tanlash natijalari komissiya tomonidan tekshiriladi.
G'olibning mazkur Ommaviy oferta talablariga muvofiqligi tasdiqlangandan keyingina u rasmiy g'olib deb e'tirof etiladi.
- 5.7. Agar tanlangan Ishtirokchi mazkur Ommaviy oferta talablariga javob bermasa yoki g'olib deb topilishiga to'sqinlik qiluvchi holatlar aniqlansa, Bank komissiyasi qaroriga asosan xazira Ishtirokchi tasodifiy tanlash algoritmi orqali aniqlanadi.
- 5.8. G'oliblarni aniqlash yakunlari Bank komissiyasining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi hamda Bankning rasmiy veb-sayti va rasmiy ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilinadi.
- 5.9. Bank g'oliblarni aniqlash jarayonini foto, audio va video vositalar orqali qayd etish hamda mazkur materiallardan axborot va reklama maqsadlarida foydalanish huquqiga ega.
- 5.10. Komissiya tomonidan tasdiqlangan yakuniy natijalar qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, qayta ko'rib chiqilmaydi.

6. G'OLIBLARGA PUL MUKOFOTLARINI TOPSHIRISH TARTIBI

- 6.1. G'oliblar Bank komissiyasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng Bank tomonidan telefon qo'ng'irog'i, SMS-xabarnoma yoki boshqa aloqa vositalari orqali xabardor qilinadi.
- 6.2. G'oliblar to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning rasmiy veb-sayti hamda rasmiy ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilinishi mumkin.
- 6.3. Pul mukofoti g'olibning shaxsi identifikatsiya qilingandan hamda mazkur Ommaviy oferta talablarida nazarda tutilgan hujjatlar rasmiylashtirilgandan so'ng, g'olib nomiga ochilgan Xalq bankining UZCARD bank kartasiga pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

- 6.4. Pul mukofoti g'oliblar ro'yxati tasdiqlangan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida to'lab beriladi.
- 6.5. Pul mukofotini olish uchun g'olib:
- shaxsini tasdiqlovchi hujjatni;
 - Bank tomonidan talab etilgan boshqa zarur hujjatlarni
- taqdim etishi shart.
- 6.6. Quyidagi hollarda Bank pul mukofotini topshirishni rad etish huquqiga ega:
- noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lsa;
 - g'olib mazkur Ommaviy oferta talablariga javob bermasa;
 - firibgarlik yoki noqonuniy harakatlar aniqlansa;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lsa.
- 6.7. Pul mukofoti boshqa shaxsga o'tkazilmaydi, almashtirilmaydi hamda boshqa turdagi mukofot bilan almashtirib berilmaydi.
- 6.8. Agar g'olib pul mukofotini olishdan yozma ravishda voz kechsa yoki Bank tomonidan belgilangan muddat ichida uni qabul qilmasa, Bank mazkur mukofot bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 6.9. Pul mukofoti g'olibga to'liq topshirilgan paytdan boshlab Bank mazkur Ommaviy oferta doirasidagi majburiyatlarini bajarilgan deb hisoblaydi.

7. QO'SHIMCHA SHARTLAR

- 7.1. Mazkur Ommaviy oferta O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Aksiyaning tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.
- 7.2. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi mazkur Ommaviy oferta shartlari bilan to'liq tanishganligini, ularni tushunganligini hamda hech qanday e'tirozlarsiz qabul qilganligini tasdiqlaydi.
- 7.3. Bank Aksiya shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, zarur hollarda Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish hamda qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilish huquqiga ega.
- 7.4. Firibgarlik, qalbakilashtirish, yolg'on ma'lumot taqdim etish, Aksiya natijalariga noqonuniy ta'sir ko'rsatishga urinish yoki boshqa noqonuniy harakatlar aniqlangan taqdirda, Bank Ishtirokchini Aksiyadan chetlashtirish va g'oliblik maqomini bekor qilish huquqiga ega.
- 7.5. Bank Ishtirokchi tomonidan noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlar taqdim etilishi oqibatida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.
- 7.6. Bank Aksiya doirasida olingan shaxsga doir ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq qayta ishlaydi va himoya qiladi.
- 7.7. Aksiyada g'olib deb topilgan Ishtirokchi o'zining familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lsa), yashash hududi, foto va videotasvirlari hamda Aksiya natijalari bilan bog'liq boshqa ma'lumotlarning Bankning rasmiy axborot resurslarida qo'shimcha haq to'lanmagan holda e'lon qilinishiga rozilik bildiradi.
- 7.8. Mazkur Ommaviy oferta yuzasidan yuzaga keladigan nizolar, avvalo, muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.
Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda vakolatli sud tomonidan ko'rib chiqiladi.
- 7.9. Fors-major holatlari, jumladan tabiiy ofatlar, texnogen avariya, davlat organlari qarorlari, telekommunikatsiya tarmoqlaridagi uzilishlar, axborot tizimlaridagi nosozliklar yoki Bank irodasiga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar yuzaga kelgan taqdirda, Bank mazkur holatlar oqibatida o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7.10. Bank mazkur Ommaviy ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Bunday o'zgartirishlar Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi, agar ularda boshqacha muddat nazarda tutilmagan bo'lsa.

8. YAKUNIY QOIDALAR

- 8.1. Mazkur Ommaviy oferta Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi va Aksiya yakunlangunga qadar amal qiladi.
- 8.2. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mazkur Ommaviy ofertaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Aksiyaning muddatidan oldin to'xtatish yoki uning muddatini uzaytirish huquqiga ega.
- 8.3. Mazkur Ommaviy oferta bo'yicha yuzaga keladigan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.
- 8.4. Mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Bankning ichki hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.
- 8.5. Mazkur Ommaviy oferta davlat tilida tuzilgan. Zaruratga ko'ra boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin.
- 8.6. Tarjima matni bilan davlat tilidagi matn o'rtasida tafovut yuzaga kelgan taqdirda, davlat tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.
- 8.7. Mazkur Ommaviy oferta bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni Bankning rasmiy veb-sayti, Aloqa markazi yoki Bank xizmatlari markazi orqali olish mumkin.